



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



NAVOIY VILOYATIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO'RSATKICHLARI

2024- YIL YANVAR-IYUN


NAVOIY VILOYATIDA FAOLIYAT KO'RSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2024- yilning 1-iyul holatiga Navoiy viloyatida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 1 222 tani tashkil etdi.



Qurilish korxonalarining katta qismi, ya'ni 372 tasi yoki viloyatdagi jami korxonalarining 30,4 % i Navoiy shahrida joylashgan.

2024- yil 1-iyul holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda


Hududlar kesimida




Yillar kesimida qurilish tashkilotlari soni



Bino va inshootlar qurilishi



Fuqarolik obyektlarini qurish





Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Shuningdek, Karmana tumanda 222 ta (viloyat bo'yicha ularning jami soniga nisbatan 18,2 %), Qiziltepa tumanida – 183 ta (15,0 %) qurilish korxonalarini mavjud bo'lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko'rsatkichga ega.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi (yanvar-iyun oylari uchun)

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, Navoiy viloyatida jami 4 157,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 127,8 % ni tashkil etdi.



Maʼlumot uchun: Qurilish faoliyati bu – oʻz kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.


2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2024-yilning yanvar-iyun oylarida Navoiy viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 74,8 %ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 127,1 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi, jami qurilish ishlariga nisbatan ulushi 19,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 123,5 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi, esa 5,9 % ulushni va 2023- yilning mos davriga nisbatan 147,8 % ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 78,0 % i yoki 3 242,9 mlrd. so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 300,3 mlrd. so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 40,1 % ni tashkil etdi.

40,1 %

1 300,3
mlrd. so‘m

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan 1 177,8 mlrd. so‘m yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 36,3 % ni tashkil etdi.

36,3 %

1 177,8
mlrd. so‘m

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 764,8 mlrd. so‘m yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 23,6 % ni tashkil etdi.

23,6 %

764,8
mlrd. so‘m



2024- yilning yanvar-iyun oylarida umumiy hajmdan yangi qurilish ishlari hajmi

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Tomdi tumani (977,8 mlrd. so'm), Navoiy shahri (707,4 mlrd. so'm), Qiziltepa tumani (684,3 mlrd. so'm) va Zarafshon shahri 387,6 mlrd. so'm) qayd etildi.

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish, mlrd. so'm
Navoiy viloyati	4 157,6	127,8	3 242,9
<i>shaharlar:</i>			
Navoiy	707,4	116,2	432,6
Zarafshon	387,6	109,4	334,2
G'ozg'on	15,2	102,7	3,5
<i>tumanlar:</i>			
Konimex	97,9	106,0	28,8
Qiziltepa	684,3	102,3	392,8
Navbahor	191,2	64,0	254,3
Karmana	349,5	103,7	213,9
Nurota	316,5	77,1	287,3
Tomdi	977,8	10,2 m	975,8
Uchquduq	121,2	133,9	104,6
Xatirchi	309,0	107,9	215,1




Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – **3 111,1 mlrd. so'm.**



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 39,5 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 21,3 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2023- yilning mos davriga nisbatan 12,3 % punktga kamayib, 32,3 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2023- yilning mos davriga nisbatan 9,0 % punktga kamayib, 28,2 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda

Maʼlumot uchun:
Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Tomdi tumani (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 98,2 % Uchquduq tumani (89,0 %) va Xatirchi tumani (81,9 %) da kuzatildi.



Tomdi tumani
98,2 %




Uchquduq tuman
89,0 %



Xatirchi tumani
81,9 %

**2024- yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik
obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari
Korxonalar turlari bo'yicha**

Fuqarolik obyektlarini qurish- 803,8 mlrd. so'm.




Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, quvur tarmoqlari va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 51,0 % ni tashkil etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 45,8 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 49,0 % (45,8 % punktga kamaydi).

2024- yilning yanvar-iyun oylarida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Navoiy shahar (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 34,3 % i), Qiziltepa tumani (29,7 %) va Karmana tumani (26,7 %) da kuzatildi.



34,3 %
Navoiy shahar




29,7 %
Navbahor tumani



26,7 %
Karmana tumani

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari- **242,7 mlrd. so'm.**




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,7 % punktga kamayib va 0,0 % ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga esa 100 % hissa to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 16,7 % punktga ko'paydi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi, mlrd. soʻmda



Maʼlumot uchun:
Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Gʻozgʻon shahrida (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 58,4 % i), Konimex tumani (44,2 %) va Navoiy shahar (11,7 %) kuzatildi.



58,4 %
Gʻozgʻon shahri



44,2 %
Konimex tumani



11,7 %
Navoiy shahari


2024- yilning yanvar-iyun oylarida korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*




Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.


Jami hajmga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor


2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
296,9 %

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
91,8%

2023-yilning mos davri bilan solishtirganda –
95,4 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari


Yirik qurilish tashkilotlari, jamiga nisbatan ulushi



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2024-yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 638,6 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2023-yilning mos davriga nisbatan 296,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 22,3 % punktga ko'payib, 39,4 % ni tashkil etdi.


Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Hududlar kesimida mlrd. so'mda




Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2024- yilning yanvar-iyun oylarida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, jamiga nisbatan ulushi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 39,5 % i to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 15,7 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning mos davriga nisbatan 91,8 % ni tashkil etgan holda 1 640,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Hududlar kesimida jamida ulishi % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor, jamiga nisbatan ulushi




Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 21,1 % ni yoki 879,0 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 95,4 % ni tashkil etdi. Shundan 525,2 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 97,3 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 239,5 mlrd. soʻmni va 87,2 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 114,3 mlrd. soʻmni va 105,7 % ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Yanvar-iyun oyidagi hajm, (mlrd. so'mda)



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 285,2 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3 872,4 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda 6,9 % va 93,1 % ni tashkil etdi.



Ma'lumot uchun:

Qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichlari Tomdi tumanida (977,8 mlrd.so'm), Navoiy shaharda (707,4 mlrd.so'm), Qiziltepa tumanida (684,3 mlrd.so'm) va Zarafshon shaharda (387,6 mlrd.so'm) to'g'ri keldi.

Qurilish ishlari ***USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR***

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki xavf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlari – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlarini o'z ichiga oladi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi
Tel. (79) 223-54-73